



# XALQ DEPUTATLARI OLTIARIQ TUMAN KENGASHI

## Q A R O R I

150200, Oltiariq t., Mustaqillik k., 90-uy, tel: (73) 432-06-93

2023 - yil 25 - sentabr

VI-58-113-11-151-K/23

Oltiariq tuman hokimligi

### **Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag’lar ajratish to’g’risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprel kungi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag’lar ajratish maqsadida hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Oltiariq tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

#### 1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprel kungi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 17-iyulidan 16-sentyabriga qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.v.b S.Oripovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari Oltiariq tuman Kengashining 2022-yil kungi 19-iyul kungi VI-49-85-11-151-K/22 sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, “Ochiq byudjet” portalida ENG KO’P ovoz olib, avtomatik tarzda g’olib sifatida **6 080,0 mln so’mlik** 5 ta loyixalar “g’olib” deb topilsin.

3. Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo‘yicha, “Manzilliy ro‘yxat” 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda,

-Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan tuman byudjeti mablag'lari tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlangan mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qo'yilsin.

4. Tasdiqlangan Manzilli ro'yxat asosida:

- Tuman Iqtisodiyot va Moliya bo'limi (S.Oripov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlarga tegishli mablag' manbaasi bo'yicha (4017) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" maxsus hisob raqamlari ochilishini;

- Tuman hokimligi hisobxonasi (M.Murodullayev) Jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag'lar yo'naltirilishini;

-Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari (A.Xonkeldiyev) va tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (S.Oripov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq byudjet" portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

6. Tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

7. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

8. Qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Xalq deputatlari Oltiariq  
tumani kengashi raisi**



**Sh.Turdaliyev**

Xalq deputatlari Oltiariq tuman Kengashining  
2023-yil 25-sentabrdagi  
VI-58-113-11-151-K/23-son qaroriga  
1-ilova

№	G'olib taklif ma'lumotlari						ming.so'm		
	Taklif ID raqami	Taklif turkumi	Qisqacha mazmuni	Tadbirlarning manzili (Joylashgan MFY nomi)	Amalga oshiriladigan tadbir turi	To'plagan ovozlari soni	Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Xaqiqatda ajratilgan mablag'	Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot
			<b>Oltiariq tumani jami</b>		xxx	<b>28 240</b>	<b>6 080 000,0</b>	<b>6 080 000,0</b>	
1	031260677011	Ichimlik suvi va oqava tizimini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlar	Yoshlik MFY xududidagi Toshxirmon hamda Ibn Sino ko'chalarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 1 ta suv qudug'i qazish, suv minorasi o'rnatish, suv nasosi o'rnatish va 2.5 km tarmoq tortish	Yoshlik	Qurilish-ta'mirlash	4756	1 320 000,0	1 320 000,0	Suv ta'mionti va oqava suv ob'ektlari qurilishi bo'yicha injineriing kompaniyasi UK xududiy boshqarmasi
2	031279359011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Jarqo'rg'on MFY xududidagi Saylgox va Mirishkor ko'chalarida 2700 metr masofada asfaltlash ishlarini amalga oshirish	Jarqo'rg'on	Qurilish-ta'mirlash	6572	1 320 000,0	1 320 000,0	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
3	031255482011	Maxalla guzari (mahallada umumfoydalanishda bo'lgan boshqa ob'ektlar) ni ta'mirlash-tiklash bilan bog'liq xarajatlar	Jarqo'rg'on mahalla binosini joriy tamirlash	Jarqo'rg'on	Qurilish-ta'mirlash	5014	800 000,0	800 000,0	Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati DUK
4	03172856011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Qo'rg'oncha MFY xududidagi Tabarruklar, Mirishkorlar, S.Temur ko'chalarini jami 2700 masofada asfaltlash	Qo'rg'oncha	Qurilish-ta'mirlash	6190	1 320 000,0	1 320 000,0	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK

5	03166551011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	CHordara mfy xududidagi Xamjixat ko'chasi 1000 m Chordara ko'chasi 1000 m Yangiobod ko'chasi 700 m asfaltlashtirish	CHordara	Qurilish-ta'mirlash	5708	1 320 000,0	1 320 000,0	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
---	-------------	------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------	---------------------	------	-------------	-------------	-------------------------------------------------------